

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. Imzo

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

**FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701338**

Toshkent – 2017

### ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi javobdagi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap tarkibida ikki o'rinda fonetik o'zgarish yuz bergan?  
A) *Odam qancha ko'p bilsa, yashashi shuncha qiyinlashadi.*  
B) *Kimki oilani muqaddas bilmasa, uning uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q.*  
C) *Kim ko'zguna ko'p qarasa, xotirasi susayib ketarkan.*  
D) *Kimki nuqul o'tmishidan nolisa uning kelajagi ham barbod bo'ladi.*
2. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirok etgan?  
A) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*  
B) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbuv qilmaydi.*  
C) *Vatanni ko'z qorachig'iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.*  
D) *O'z Vatanga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*
3. Qaysi gaplarda otlashgan sifatdosha bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchining kesimga tobelanishi kuzatiladi?  
1. Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi.  
2. O'tirganlar otning baland ovoza kishnaganini eshitishdi.  
3. Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,  
Sha'niga barcha el rahmatlar aytar.  
4. Topganingdan yo'qatganing ortiqcha bo'lmasin, -dedi nabirasiga.  
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
4. Berilgan gapda munosabat shakllari ta'sirida fonetik o'zgarish asosida yozilgan nechta so'z ismlar guruhiga mansub?  
O'rnimdan turib uy eshigini ochsam, o'g'lim bilan o'rtog'i sovuqdan qulog'i, burni qizarib kirib keldi.  
A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 4 ta
5. Berilgan so'zlardan nechtasida nuqtalar o'rniga bo'g'iz undoshi qo'yilishi kerak?  
...alifa, ...ilvatxona, mu...olif, ...assos, e...rom, shuku...li, ta...sin  
A) beshtasida B) uchtasida C) oltitasida D) to'rttasida
6. Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday his kechirganini, o'zining esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganini bilishni istasang, atrofigdagi onalarga qara, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda sen o'z go'dakligingni yorqin tasavvur qilasan va o'zing bundan xulosa chiqarib olasan.  
Ushbu murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlari haqida berilgan qaysi hukm to'g'ri emas?  
A) *barcha kesimlar so'f'el bilan ifodalangan*  
B) *shart, buyruq-istak, xabar mayli fe'llari bilan ifodalangan*  
C) *kesimlari musatqil va nomustaqil kesimlarga mansub*  
D) *kesimlar har xil shaxs-son ma'nosidagi fe'llar bilan ifodalangan*
7. So'z birikmasi va qo'shma so'zga oid umumiy fikrlarni toping.  
1) qismlari orasidagi grammatik aloqa sezilmaydi; 2) bir xil grammatik shaklga ega bo'lishi mumkin; 3) qismlari bir xildagi so'z turkumlariga oid bo'lishi mumkin; 4) ularni tashkil etuvchi qismlarning har biriga alohida-alohida so'roq berish mumkin  
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 5
8. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.  
1) **shoh**; 2) **asr**; 3) **soch**; 4) **rux**; 5) **sanat**; 6) **tus**  
A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5
9. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot so'z turkumiga oid so'z bilan omonim bo'la oladi?  
1) inmoq; 2) yashirinmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq  
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 5
10. Bola qoshida ota-onaning so'zi bilan ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat va hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan o'tkir boltadir.  
Ushbu gapdagi belgilangan so'zda ma'no qaysi usulda ko'chgan?  
A) *metafora* B) *metonimiya* C) *sinekdoxa* D) *vazifadoshlik*
11. Bir kuni chol bechora qo'li titrab osh suzilgan kosasini tushirib sindirdi, buni ko'rgan kelini nodon so'zlar aytib uning ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi.  
Ushbu parchada qatnashgan fe'llar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *ortirma nisbatdagi fe'l 2 o'rinda qatnashgan*  
B) *o'timli-o'timsizlik ma'nosi nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zgarigan fe'l 1*
- o'rinda qatnashgan*  
C) *aniq nisbatdagi fe'l 4 o'rinda qatnashgan*  
D) *o'zlik nisbatdagi fe'l 1 o'rinda qatnashgan*
12. Poyingda shu jannat tufroq Istiqbol,  
Boshingda bulutsiz samo hurlikdir.  
Beshingda chaqna yotar istiqbol,  
Mustaqillik tili, dili birlikdir.  
She'riy parchadagi yasama otlar haqida bildirilgan noto'g'ri hukmni belgilang.  
A) *Sodda yasama otlarning yasalish asosi ikki xil so'z turkumiga oid.*  
B) *Ikki o'rinda sifatdan yasalgan ot ishtirok etgan.*  
C) *Sifatdan yasalgan otlar bir xil sintaktik vazifani bajargan.*  
D) *Yasama otlar ikki o'rinda kesim vazifasida kelgan.*
13. Ravishning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan gapni aniqlang.  
A) *U kamtarona tabassum bilan sekin qarab qo'ydi.*  
B) *Borib anhordan endi suv ichaman deb engashganimni bilaman, changalzor asta shitirladi.*  
C) *Allamahalgacha farg'onalik chorvadorlar o'tovida gurunglashib o'tirdik.*  
D) *Norozilik bilan to'ng'illab o'rnimizdan turishga majbub bo'ldik.*
14. Yana tushdi Rus sari yo'lim,  
Eron, sendan ketgummi hali,  
Nahot, seni bot ko'rmas bo'ldimi?  
Ona yurtga mehrim tufayli  
Yana tushdi Rus sari yo'lim.  
She'riy parchada ravish turkumiga oid so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?  
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
15. **Buvimning har qissasi,  
Har bir qilgan hissasi  
Fikrimni tortar edi,  
Havasim ortar edi.**  
Ushbu parcha haqida bildirilgan to'g'ri fikrni toping.  
A) *bog'lovchisiz qo'shma gap*  
B) *ergashgan qo'shma gap*  
C) *bog'langan qo'shma gap*  
D) *murakkab qo'shma gap*
16. Qaysi javobda berilgan barcha so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?  
A) *mahbus, mahluq, mahfiy* B) *mahbus, maxluq, maxfiy* C) *mahbus, mahluq, maxfiy* D) *maxbus, maxluq, maxfiy*
17. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasini bir mayin,  
Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.  
Dudog'ing guldin xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,  
Kel oppog'im, bag'rimga jajji boshingangni qo'y.  
She'riy parchadagi vergullarning qo'llanishi haqidagi hukmlardan qaysilari to'g'ri?  
1. Vergul undalmalarni ajratish uchun qo'llangan. 2. Uyushiq ega qatnashganligi uchun vergul qo'llangan. 3. Ajratilgan bo'laklar mavjudligi uchun vergul qo'llangan. 4. Vergul qo'shma gap qismlarini ajratish uchun qo'llangan  
A) 1, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 4 D) 2, 3
18. Berilgan parchada uchta so'zga nisbatan bevosita hokim qism vazifasini bajargan?  
Dunyodagi tinchliksevar va madaniy xalqlar o'zaro insoniy muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq urf-odatlar bor.  
A) *faqat kesim*  
B) *to'ldiruvchi, kesim*  
C) *ega, kesim*  
D) *ega, to'ldiruvchi, kesim*
19. Berilgan she'riy parchada holning qaysi ma'no turlari ishtirok etgan?  
Saboq olib diyonatdan,  
Ezgu ishdan, matonatdan,  
Qochib mudom xiyonatdan,  
Asragaymiz biz Vatanni.  
A) *faqat payt holi* B) *sabab holi, payt holi* C) *o'rin holi, payt holi* D) *ravish holi, payt holi*
20. Holatga taqlid so'z hol vazifasini bajargan gapni toping.  
A) *Jannat xola nima bo'lganini bilolmay, devorga suyanganicha dag'-dag' titrab turardi.*  
B) *Hozir qulfni daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar*

- qolmagan.*  
C) O'rdaklar karvoni pastlab uchib, qorayib yotgan yer ustida yana bir aylandi-yu, g'aqillab qumlik chetida sokin shovullagan qamishlar ustiga sho'ng'ib ketdi.  
D) Chirs-chirs chaqmoq chaqar, temir shift dahshatli lopillar edi.
21. Qaysi gapda uyushgan nomustaqil to'ldiruvchi qo'llangan?  
A) Farzandlarimizga til, kasb o'rganishning payida bo'laylik.  
B) O'zidan yaxshi nom qoldirgan inson izzat-ikromga, xotirlab turishga loyiqdir.  
C) Umurzoq konvertini ham, mayda-mayda qilib yozilgan oq qog'ozni ham, cheti qora hoshiyali mushti rang qog'ozni ham ko'rdi.  
D) Ular o'zlarining eng nodir asarlarida do'stlikni, mehr-muhabbatni zavq bilan ulug'laganlar.
22. Yasalish asosi ham, yasovchi vositasi ham omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan omonim so'zni aniqlang.  
A) kechik B) bo'g'ma C) qaytim D) quymoq
23. Quyidagilar orasidan so'z yasovchi va shakl yashovchi sifatida o'zaro omonim bo'la oladigan qo'shimchalari ko'rsating.  
1) -siz, 2) -ona, 3) -lab, 4) -larcha, 5) -xon, 6) be-  
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6
24. Tarkibida turlangan so'z qatnashgan gap(lar) berilgan javobni toping.  
1. Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. 2. Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi. 3. Yigit to'satdan gandarab borib tizzalab qoldi. 4. Shu payt birdan eshik sharaqlab ochildi-yu, Erto'ev kirib keldi.  
A) 2, 3 B) 2 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
25. Aruzning ramali musamrnani mahzuf (yoki maqsur) vaznida bitilgan bayt berilgan javobni aniqlang.  
A) *Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?" Derki: "Bois bo'ldi jisrn ichra marazning shiddati"*  
B) *Dunyo chamanini(ng) bulbulisan, Gul shoxida oshiyon etib ket.*  
C) *Ko'zum qonimdin iymannas, ajabtur, Ki: "Qo'r qar, qaydakim qon ko'rsa, hindu"*  
D) *Sensen sevavim, xoh inon, xoh inonrna, Qondur jigarim, xoh, inon, xoh inonrna.*
26. Qaysi javobda Haynrix Haynening she'riy kiroblari nomi berilgan?  
A) "Yo'l lavhalari", "Oqshom qo'shiqlari"  
B) "Oqshom qo'shiqlari", "E'tirof"  
C) "Romanserov", "E'tirof"  
D) "Yo'l lavhalai", "Lukresiya"
27. "Bir tup o'rik... Bodroq-bodroq bo'lib gullaganida Ko'lankasi bilan do'st tutinibdi", degan misralaar muallifini aniqlang.  
A) Muhammad Yusuf B) To'ra Sulaymon C) Mirtemir D) Asqad Muxtor
28. Qo'lingdan kelguncha karam qil, karam, Karamli bo'lmagay hech kimsadan kam. Ushbu pand-nasihat Sa'diy ijodiga mansub qaysi hikoyada uchraydi?  
A) *Sahroda tashna itga duch kelgan kishi haqidagi hikoyat*  
B) *Bo'zdan libos kiyib yuruvchi podsho haqidagi hikoyat*  
C) *Hayit kuni adashib qolgan bola haqidagi hikoyat*  
D) *O'g'lining qilmishi uchun zindonga tushgan darvesh haqidagi hikoyat*
29. Murod Muhammaad Do'st qalamiga mansub asar nomini aniqlang.  
A) "Bir toychoqning xuni"  
B) "Ko'ngil ozodadir"  
C) "Otoyining tug'ulgan kuni"  
D) "Yozning yolg'iz yogori"
30. Turob To'laning balet librettosi qaysi javobda berilgan?  
A) "Malikayi ayvor" B) "Samarqand afsonasi" C) "Zulmatdan ziyo" D) "Momo yer"
31. Navoiyning qaysi g'azali ichki qofiyaga ega?  
A) *"Jong'a chun dermen..." deb boshlanuvchi g'azali*  
B) *"Ko'rgali husnugni zor-u ..." deb boshlanuvchi g'azali*  
C) *"Ko'nglung istar yorlar birla..." deb boshlanuvchi g'azali*  
D) *"Qoshi yosinmu deyin..." deb boshlanuvchi g'azali*
32. Hasbi hol yo'nalishidagi quyidagi misralar qaysi shoira qalamiga mansub? Yigirma yil maktab ochdim qizlarga, Hirsim baland bo'ldi doyim ash'ora. O'zum bitdim mingdin ortuq g'azalni, Zikr etib o'tdim oxir azalni.  
A) Dilshodi Barno B) Nodira C) Anbar Otin D) Jahon Otin Uvaysiy
33. Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan qaysi asar tarixiy hisoblanadi?  
A) "Axloqy Muhsiniy" (Koshifiy)  
B) "Ravz us-safo" (Mirxond)  
C) "Badoe ul-vaqoe" (Vosifiy)  
D) "Shoh va gado" (Hiloliy)
34. "Turk xoqonligi" (N. R. ahmonov) risolasida bayon etilishicha, Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan turk zodagonlarining o'g'illaridan biri kim edi?  
A) Kultegin B) Eltarish C) To'nyuquq D) Istamin
35. Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab! Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab! Ushbu parcha Alisha Navoiy ijodidagi qaysi adabiy qahramon tilidan aytilgan?  
A) Shirin B) Majnun C) Farhod D) Layli
36. Sarv-u gul-u lola xaridori bor, Lek o'tinning dog'i bozori bor... Baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?  
A) husni ta'lil B) tanosub C) tajnis D) tashxis

## BIOLOGIYA

37. Bug'doyning qizil ( $A_1A_1A_2A_2$ ) va oq ( $a_1a_1a_2a_2$ ) donli navlari o'zaro chatishtirilganda  $F_2$  da hosil bo'ladigan och qizil (a), qizil (b), pushti (c) donli o'simliklar necha xil genotipik sinflarga ega bo'ladi?  
A) a-1, b-2, c-2 B) a-2, b-3, c-2 C) a-2, b-1, c-3 D) a-2, b-1, c-4
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irsiylanadigan turi mavjud bo'ladi?  
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Odamda giperxolesterinuriya dominant belgi sifatida autosomadagi genlar ishtirokida irsiylanadi. Gomozigotalilarda kasallik ateroskleroz va terida xavfsiz o'simtalar paydo bo'lishi bilan kechadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gipertrixoz Y xromosomada joylashgan. Giperxolesterinuriyaning yengil formasi bilan kasallangan ayol o'ziga o'xshash va gipertrixoz bilan kasallangan erkakka turmushga chiqdi. Farzandlarning gipertrixoz bilan tug'ilish ehtimoligini (%) aniqlang.  
A) 25 B) 100 C) 75 D) 50
40. Inversiya (I) va Inersiya (II) tushunchalariga mos ta'riflarni juftlang. (a) va (b) qanday nomlanadi?  
a) xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi;  
b) xromosoma ayrim qismining ortishi;  
c) DNK bo'lami genomning ma'lum joylariga kirishi;  
d) o'simliklarni iqlimlashtirish;  
A) I-a; II-c  
B) I-c; II-d  
C) I-c; II-a  
D) I-b; II-c
41. Noma'lum miqdordagi glyukoza to'liq parchalandi. Ushbu jarayonda 4480 kJ issiqlik energiyasi va 154 molekula suv ajralib chiqdi. Dissimilyatsiya jarayonida to'liq parchalangan glyukoza miqdorini (g) aniqlang. hosil qilish uchun necha molekula ATF sarf bo'lishini aniqlang. (ADF va fosfat kislotaning birikishidan bir molekula ATF va bir molekula suv hosil bo'ladi)  
A) 450 B) 630 C) 540 D) 360
42. Diploid olcha (a) va tetraploid ( $n=12$ ) tamakida (b) meyoziy profaza I bosqichida xromatidalar sonini aniqlang.  
A) a-32; b-48  
B) a-64; b-96  
C) a-32; b-12

- D) a-8; b-72
43. Do'lanadagi oila (a) sinf (b) ga xos xususiyatlarni aniqlang.  
1) murakkab gulqo'rg'on; 2) ildiz tizimining turi; 3) barglarining tomirlanishi; 4) meva turi; 5) urug' murtakining tuzilishi; 6) poyaning ichki tuzilishi; 7) barglarning novdada joylashishi  
A) a-1,7; b-4,5  
B) a-4,7; b-5,6  
C) a-3,5; b-4,2  
D) a-1,6; b-3,4
44. To'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) Makkajo'xori o'simligida 3- va 5- juft xromosomalar tarqalmay bitta qutbga to'planishi natijasida meyoz I yakunida 8 yoki 12 ta xromosomal hujayralar hosil bo'ladi.  
B) Qalampir hujayrasida to'rt juft gomologik xromosomalar faqat bitta qutbga to'plansa, meyoz I yakunida 45 yoki 51 ta xromosomal to'planish natijasida meyoz I yakunida hujayrada 11 yoki 15 ta xromosoma bo'ladi.  
C) No'xat o'simligida 2- va 5- juft xromosomalar tarqalmay bir qutbga to'planishi natijasida meyoz I yakunida hujayrada 11 yoki 15 ta xromosoma bo'ladi.  
D) Bug'doy o'simligi hujayrasida 4- juft xromosomada delesiya yuz berganda 13 ta xromosoma bo'ladi.
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fandagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.  
1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlodi; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;  
a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) brontozavr; f) ixtiozavr  
A) 1-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d  
B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f  
C) 1-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d  
D) 1-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a
46. Biosfera tirik moddasining funksiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) temir bakteriyalarining xemosintez qilishi; 2) atmosfera tarkibida kosmik chang zarralarining uchrashi; 3) hayvonlarning kislorod yutib CO<sub>2</sub> chiqarishi; 4) vulqonlarning otilishidan tog' jinrlarining hosil bo'lishi; 5) geterotroflarning tayyor organik modda bilan oziqlanishi; 6) ildizoyoqli sodda hayvonlarda kalsiyning to'planishi  
A) 1,2,3 B) 2,4,5 C) 1,3,6 D) 4,5,6
47. Gidrofrit (a) kserofrit (b) ekologik guruhlariga mansub yuksak o'simliklarni aniqlang.  
1) ro'vak; 2) suv yong'og'i; 3) sarsazan; 4) iloq; 5) suv qirqqulog'i; 6) buyurg'un; 7) laminariya; 8) qamish  
A) a-4,8; b-3,6 B) a-7,8; b-2,5 C) a-1,2; b-3,8 D) a-2,5; b-4,6
48. Komplementar irsiylanishda epistaz irsiylanish kabi ...  
1) allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri kuzatiladi; 2) digeterozigota duragaylarning avlodida 9 xil genotipik sinf hosil bo'ladi; 3) belgining rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 4) bir gen belgiga bevosita ta'sir qilsa, ikkinchisi bilvosita ta'sir qiladi  
A) 3,4 B) 2,3 C) 1,2 D) 1,4
49. Odam a'zolaridan ajraladigan gormonlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) glyukokortikoid; 2) androgen; 3) katexolamin; 4) timozin; 5) intermedin; 6) tripsin;  
a) gipofizning o'rta bo'lagi; b) gipofizning orqa bo'lagi; c) qalqonsimon bez; d) epifiz; e) buyrakusti bezining po'stloq qavati; f) buyrakusti bezining miya qavati; g) oshqozon osti bezi  
A) 1-e, 3-f, 5-b, 6-g B) 1-e, 2-e, 3-b, 5-a C) 1-e, 2-f, 3-f, 4-d D) 1-f, 3-e, 3-c, 5-a
50. Odam organizmida maksimal bosim yuzaga kelgan vaqtda...  
A) qoricha diastola holatida bo'ladi; simpatik nerv sistemasi ta'sir qiladi  
B) ikki tavaqali klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha sistola holatida bo'ladi  
C) yarimoyisimon klapan ochiq bo'ladi; qorincha diastola holatida bo'ladi  
D) yarimoyisimon klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha diastola holatida bo'ladi.
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi  
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odaming bosh miyasiga xos bo'lmagan ma'lumotni aniqlang.  
A) Bosh miya katta yarimsharhlarining sezish zonasi hujayralari sezgi organlaridan kelayotgan impulslarni qabul qiluvchi oliy nerv markaz hisoblanadi  
B) Bosh miyaning stvol qismidagi nerv hujayralari shartsiz reflekslarning nerv markazi hisoblanadi  
C) Bosh miya shikastlanganda qo'l-oyoq tonusi pasayib, falajlangan oyoq harakatsiz osilib qoladi  
D) Uzunchoq miyadan chiquvchi adashgan nerv to'lasi parasimpatik nerv sistemasining bir qismi bo'lib, qorin bo'shlig'ining yuqori qismida joylashgan organlar ishini boshqaradi
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.  
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.  
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.  
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Metamorfoz jarayonida g'umbaklik bosqichini o'taydigan hasharotlar turkumlarini aniqlang.  
A) ikki qanotlilar, parda qanotlilar, tangacha qanotlilar, chumolilar  
B) qo'ng'izlar, arilar, yaydoqchilar, kapalaklar  
C) ikki qanotlilar, parda qanotlilar, tangacha qanotlilar, burgalar  
D) qo'ng'izlar, arilar, kapalaklar, pashshalar, chumolilar
55. Qisqichbaqada ham, butli o'rgimchakda ham qorin qismida joylashgan a'zolari ko'rsating.  
1) zahar bezi; 2) oshqozon; 3) ichak; 4) jinsiy bez; 5) traxeya; 6) o'pka xaltasi; 7) yurak; 8) nerv zanjiri; 9) so'gallar; 10) yurish oyoqlari  
A) 5,6 B) 3,8 C) 1,2,10 D) 4,7,9
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.  
A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr  
B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon  
C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha  
D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon
57. Yirtqich sutemizuvchilar tishlariga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
a) oq ayiq; b) bo'rsiq; c) tyin; d) norka;  
1) kurak tishlari yirik va o'tkir; 2) qoziq tishlari baquvvat va o'tkir; 3) kurak tishlari mayda; 4) qoshiq tishlari bo'lmaydi; 5) oziq tishlarning o'zgarishidan yirtqich tishlar hosil bo'lgan; 6) kurak tishlari hayoti davomida o'sib turadi  
A) a-2,3,5; b-2,5; c-1,6; d-3,5  
B) a-2,5; b-1,2,5; d-1,4,6  
C) a-2,3,5; b-2,5; d-2,3  
D) a-2,3,5; b-2,3,5; c-1,4,6
58. Yirtqich umurtqasiz (a) va o'txo'r umurtqali (b) hayvonlarni aniqlang.  
1) malla shomshapalak; 2) zlatka; 3) falanga; 4) tipratikan; 5) aureliya; 6) tillako'z; 7) bizon; 8) qaldirg'och; 9) hasva qandalasi; 10) karkidon  
A) a- 3, 9; b-4, 10  
B) a- 5, 6; b- 7, 10  
C) a- 3, 5; b-1, 8  
D) a- 2, 6; b- 4, 8
59. Avtotrof oziqlanish xususiyatiga ega prokariot (a) va geterotrof oziqlanish xususiyati mavjud bo'lgan eukariot (b) organizmlarni aniqlang.  
1) ossillatoriya; 2) oltingugurt bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) shumg'iya; 5) rafleziya; 6) qo'ziqorin; 7) midiya; 8) giatsint; 9) parpi  
A) a-1,2; b-4,5,6  
B) a-2,3; b-7,8,9  
C) a-1,2,7; b-6,8  
D) a-1,9; b-6,7,8
60. Hujayra joyining o'zgarishini (1), hujayrada moddalar tashilishini (2), hayvonlarda hujayralararo aloqani (3), hujayra ichki tuzilmasini harakatini (4) ta'minlaydigan hujayra tuzilmalarini to'g'ri ko'rsating.

- a) tashqi endoplazmatik membrana; b) endoplazmatik to'ra; c) sitoskelet; d) Golji majmuasi  
 A) 1-c; 2-b; 3-a; 4-c  
 B) 1-a; 2-d; 3-b; 4-c  
 C) 1-b; 2-c; 3-a; 4-d  
 D) 1-a; 2-a; 3-c; 4-b
61. Organogenez (I) va gametogenez (II) jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlang.  
 1) o'zak organlar majmui hosil bo'ladi; 2) yetilish davrida hujayralar meyoza usulida ko'payadi; 3) ektodermadan nevroblastlar vujudga keladi; 4) spermatogenezning o'sish davrida hujayralar tez kattalashadi; 5) endodermadan ayirish organlari rivojlanadi; 6) qushlarning ovogenezida shakllanish davri bo'ladi  
 A) 1-1,5; II-2,4  
 B) 1-2,4; II-1,5  
 C) 1-1,3; II-2,6  
 D) 1-2,6; II-1,3
62. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.  
 1) tamaki; 2) sabzi; 3) arpa; 4) sholi; 5) ananas; 6) banan; 7) oshqovoq; 8) kartoshka  
 A) 2,6,8 B) 1,5,8 C) 2,4,7 D) 1,3,6
63. EcoRI restriktazasi GAATTC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GA nukleotidlar orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNK molekulasi EcoRI restriktazasi orqali A,B,C bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 2% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, DNK bo'laklari (A,B,C) tarkibidagi vodorod bog'larning nechitasi G va C nukleotidlar orasida joylashgan?  
 A) 350 B) 450 C) 426 D) 334
64. Gullari qiyshiq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.  
 1) o'tloq sebgasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenosis  
 A) 1,3,4,5  
 B) 2,4,5,6  
 C) 1,2,3,6  
 D) 2,3,4,6
65. Nastarin qaysi jihatlari bilan tokka o'xshaydi?  
 1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqliqi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) gulpozasining shoxlanishi  
 A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. "Gullari mayda, bir yoki ikki jinsli, gulgosachabarglari va gultojibarglari beshtadan, ayrimlarida gulqo'rg'oni yaxshi taraqqiy etmagan"  
 Ushbu ta'rif qaysi oila uchun xos ekanligini aniqlang.  
 A) bug'doydoshlar B) ziradoshlar C) shoradoshlar D) piyozdoshlar
67. Na'matak va tuxumak uchun umumiy belgilarni aniqlang.  
 1) mangnoliyatoifalar bo'limiga kiradi; 2) guli qiyshiq; 3) mevasi choklar yordamida birikkan; 4) hayotiy shakli buta; 5) bargchalari yonbargchali; 6) urug' meva ichida yetiladi  
 A) 3,4 B) 4,6 C) 1,2 D) 5,6
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.  
 1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irsiy material yadroga joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'ra oqsillar sintezlanadi; 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'ladi  
 A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Itsigak (a) va isirg'ao't (b) ga xos bo'lgan belgilarni ajrating.  
 1) gultojibarglarning 2 tasi qo'shilgan, 3 tasi erkin; 2) barglari oddiy yonbargsiz; 3) avtoxora o'simlik; 4) gulqo'rg'oni oddiy, tojbarsimon; 5) barglari yonbargchali; 6) shoradoshlar oilasiga mansub; 7) dukkaddoshlar oilasiga mansub; 8) gulqo'rg'oni oddiy kosachasimon  
 A) a-2, 4, 6; b-1, 3, 7  
 B) a-1, 3, 7; b-2, 4, 6  
 C) a-1, 3, 5; b-2, 6, 8  
 D) a-2, 6, 8; b-1, 5, 7
70. Dala qirqbo'g'im tushunchasi bilan mantiqiy bog'liq bo'lmagan atamalarni aniqlang.  
 1) urug'; 2) ildizpoya; 3) ikki jinsli gametofit; 4) sporofit; 5) ayrim jinsli gametofit; 6) arxegoniya; 7) urug'kurtak; 8) endosperm; 9) anteridiy; 10) zigota; 11) spora beruvchi boshqoq; 12) sorus  
 A) 2,3,5,9,11  
 B) 1,3,7,8,12  
 C) 1,5,7,10,12  
 D) 4,5,6,7,9,10
71. Bitta biografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.  
 A) yalqov, tapir, vampir, pingvin, malla revun, shinshila, lemur, emu, vixuxol, skuns  
 B) kabarga, los, chittak, ot, yelik, bo'ri, kar, vixuxol, qunduz, tustovuq, zubr, maral, yovvoyi, qo'y  
 C) jirafa, agama, kapachi qush, echkamar, nosorog, zebra, lemur, zubr, martishka, begemot  
 D) antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, sezarka, tovus, orangutan, nosorog, echkamar
72. Quyidagilardan ajdodlar belgisining takrorlanishiga mos misollar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) bug'doy, marvaridgul, qirqquloqlar ildizpoyasidagi qobiqlar; 2) otning ikkinchi va to'rtinchi barmoqlar; 3) uch juft emchakli buzoqchanning tug'ilishi; 4) to'riq otlarda xira chiziqlarning paydo bo'lishi; 5) kitning dumg'aza va orqa oyoq suyaklari; 6) pashsha va chivinning ikkinchi juft qanotlari; 7) yuzi va badani yungli chaqaloqlar tug'ilishi; 8) dumli bola tug'ilishi  
 A) 2,3,4,6 B) 3,4,7,8 C) 1,2,5,6 D) 4,5,6,7

## KIMYO

73. Qaysi kauchuk sopolimerlanish reaksiyasidan olinadi?  
 A) ftorokauchuk  
 B) siloksan kauchuk  
 C) xloropren kauchuk  
 D) izopren kauchuk
74. Qaysi birikmalarda kislorod -2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi?  
 A)  $KO_2$   
 B)  $OF_2$   
 C)  $H_2O_2$   
 D)  $H_2O$
75.  $H_2SO_4 \rightarrow S \rightarrow H_2S$  qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?  
 A) dissotsiyalanish darajasi  
 B) qaytaruvchilik  
 C) oksidlovchilik  
 D) suvda eruvchanligi
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 9600 ta uglerod atomi bor bo'lsa, adenin va timin nukleotidlar yig'indisini aniqlang. (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)  
 A) 1000 B) 1200 C) 1300 D) 800
77. Qaysi aminokislota qizdirilganda akril kislota hosil boladi?  
 A)  $\beta$ -aminopropan kislota  
 B)  $\beta$ -aminobutan kislota  
 C)  $\alpha$ -aminopentan kislota  
 D)  $\alpha$ -aminobutan kislota
78. 36 g glukozaning fermentlar ta'sirida spirtli biyog'ish natijasida necha gramm etil spirti hosil bo'lishini aniqlang.  
 A) 36,8 B) 50,6 C) 59,8 D) 18,4
79. 0,8 mol noma'lum bir asosli karbon kislota eritmasiga Na metali qo'shilganda 17,92 litr (n.sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 1:1 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislotaning molyar massasini aniqlang.  
 A) 88 B) 60 C) 46 D) 74
80.  $^{24}Cr$  va  $^{56}Fe$  atomlari o'zaro izoton bo'lsa, x va y uchun quyidagi munosabatlardan qaysi biri o'rinli hisoblanadi?  
 A)  $y=x$  B)  $y=x+2$  C)  $x=y+2$  D)  $x=y+1$

81. Hozirda alkaloidlar aralashmasidan toza individual alkaloidlarni ajratib olish uchun qanday usuldan foydalaniladi?  
A) haydash B) xromatografiya C) distillatsiya D) filtrlash
82. 10,2 g sirka anhidrid olish uchun necha gramm ketenga suvsiz sirka kislota ta'sir ettirish kerak?  
A) 4,2 B) 16,8 C) 12,6 D) 8,4
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO<sub>2</sub> gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.  
A) 20,1; 12  
B) 33,5; 80,4  
C) 46,9; 93,8  
D) 26,8; 53,6
84. Mol nisbatlari mos ravishda 3:2:1 bo'lgan etin, eten va etandan iborat aralashma 6,4 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadagi bromning massasi suvning massasidan 49 marta kichik bo'lsa, reaksiya uchun olingan gazlar aralashmasi umumiy miqdorini (mol) aniqlang.  
A) 0,3 B) 0,6 C) 1 D) 0,2
85. Atom kristall panjarali moddalarni aniqlang.  
1) CuSO<sub>4</sub>; 2) H<sub>2</sub>S; 3) Ge; 4) KOH; 5) B; 6) HCl; 7) Ca; 8) P<sub>4</sub>; 9) Zn  
A) 3,5 B) 7,9 C) 1,4 D) 2,6,8
86. 67,73% li kumush nitratning 50,2 g eritmasi to'liq elektroliz qilinganda tarkibida 2,5·N<sub>A</sub> ta atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Eritmadan necha faraday tok o'tganini hisoblang?  
A) 0,6 B) 0,2 C) 1 D) 0,8
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) 1/4; 1/4; 1/2  
B) 1/7; 3/7; 3/7  
C) 1/9; 2/3; 2/9  
D) 2/5; 2/5; 1/5
88. Valent elektronining kvant sonlari n=4; l=0; m<sub>l</sub>=0; m<sub>s</sub>=+1/2 bo'lgan metallning oksidi va karbonatli tuzi mo'l miqdordagi xlorid kislota eritilganda 4,48 litr (n.sh.) gaz hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiyadan so'ng hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.  
(Reaksiya uchun olingan oksid va karbonatli tuzning mol miqdorlari teng)  
A) 30,6 B) 25,3 C) 59,6 D) 43,4
89. Mis (II) nitrat kristallogidratlari tarkibida kislorodning massa ulushi vodorodnikidan 24 marta katta bo'lsa, bir mol tuzga necha mol suv to'g'ri keladi.  
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
90. Qaysi molekula tarkibida 18 ta σ- va 6 ta π bog'lar mavjud?  
A) alyuminiy nitrat  
B) alyuminiy sulfat  
C) kalsiy fosfat  
D) kaliy karbonat
91. A<sub>(g)</sub>+B<sub>(g)</sub>↔2C<sub>(g)</sub> sistemada boshlang'ich moddalardan 6 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat (K<sub>m</sub>=4) qaror topgandan so'ng moddalarning konsentratsiyalari yig'indisini (mol/l) aniqlang.  
A) 12 B) 6 C) 10 D) 8
92. 25 g tuz saqlangan 50% li eritma olish uchun 40% li va 60% li eritmalar aralashtrildi. 40% li va 60% li eritmalar mos ravishda necha gramm dan tuz saqlagan?  
A) 10; 15 B) 7,6; 17,5 C) 15; 20 D) 2,5; 22,5
93. 200 g 43,1% Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi NaH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> tuzining massa ulushi Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> tuzining massa ulushidan 3 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasining molyarligini aniqlang.  
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
94. 55% li 109 g oleum 9 g suv bilan aralashtirilsa necha foizli oleum hosil bo'ladi?  
A) 15,15 B) 85,85 C) 16,95 D) 44,84
95. Eritmadagi H<sup>+</sup> ionlari OH<sup>-</sup> ionlaridan 10<sup>6</sup> marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
A) 4 B) 10 C) 9 D) 3
96. Xlorid kislota va xloridlarni aniqlash uchun qaysi kationning eruvchan tuzi ishlatiladi?  
A) Cu<sup>2+</sup>  
B) Fe<sup>2+</sup>  
C) Na<sup>+</sup>  
D) Ag<sup>+</sup>
97. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida azot borligi ma'lum bo'lsa, A, C va F moddalarni aniqlang.  
$$\text{H}_2 + \text{N}_2 \xrightarrow{\text{t}^0, \text{P}} \text{A} \xrightarrow{\text{O}_2, \text{kat}} \text{B} \xrightarrow{\text{O}_2} \text{C} \xrightarrow{\text{O}_2 + \text{H}_2\text{O}} \text{D} \xrightarrow{\text{A}} \text{E} \xrightarrow{\text{t}^0} \text{F}$$
  
1) H<sub>2</sub>+N<sub>2</sub>; 2) NO<sub>2</sub>; 3) NO; 4) HNO<sub>2</sub>; 5) HNO<sub>3</sub>; 6) NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>; 7) N<sub>2</sub>O 8) N<sub>2</sub>  
A) 4,6 B) 1,8 C) 1,2,7 D) 5,6
98. 0,28 % li KOH ning 0,2 kg eritmasi 5A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Eritmaning pH ni toping. (ρ=1,55 g/ml)  
A) 12 B) 13 C) 11 D) 4
99. 33,7 g MnO<sub>2</sub> bilan noma'lum MeO<sub>2</sub> (HCl bilan xuddi MnO<sub>2</sub> singari reaksiyaga kirishadi) aralashmasiga mo'l HCl ta'sir ettirilganda 6,72 litr (n.sh.) Cl<sub>2</sub> ajralib chiqdi. Agar aralashma tarkibi 1:5 (MeO<sub>2</sub> : MnO<sub>2</sub>) mol nisbatda bo'lsa, MeO<sub>2</sub> ning miqdorini (g) aniqlang.  
A) 21,75 B) 13,44 C) 11,95 D) 18,65
100. Mo'l miqdordagi uglerod Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> va CaO aralashmasiga qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan moddalarga yetarli miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirildi. Bunda ajralgan gazlarni bromli suv orqali o'tkazilganda idishning massasi 15,6 g ga ortdi. Qolgan gazni yoqish uchun esa 4 mol havo sarflandi. Dastlabki aralashmadagi oksidlarning massalarini g aniqlang.  
(Havo tarkibida hajm bo'yicha 20% O<sub>2</sub> bor)  
A) 13,6; 16,8  
B) 54,4; 67,2  
C) 27,2; 33,6  
D) 27,2; 1,365
101. Quyidagi qotishmalarning qaysilarida likvatsiya hodisasi kuzatiladi?  
1) Fe-Ag; 2) Cu-Au; 3) Sn-Al; 4) Fe-Pb; 5) Pt-Au; 6) Al-Na  
A) 2,4,6 B) 1,2,4 C) 3,5,6 D) 1,4,6
102. MeSO<sub>4</sub> ning 160 g 10% li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g MeSO<sub>4</sub> · 7 H<sub>2</sub>O cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,3 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,4
103. xMgCO<sub>3</sub>=yMgCO<sub>3</sub>+zMgO+zCO<sub>2</sub> ifoda qanday ma'noni anglatadi?  
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi  
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi  
C) MgCO<sub>3</sub> tarkibida qo'shimchalar borligini  
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Teng hajmli azot va vodorod reaksiyasidan hosil bo'lgan gazlar aralashmasining geliyga nisbatan zichligini aniqlang.  
A) 14 B) 45/8 C) 28 D) 45/4
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va N<sub>2</sub>O larning hajmlari nisbatni 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.  
A) 3:8 B) 3:4 C) 3:2 D) 1:1
106. Laboratoriya natriy nitritdan azot olish jarayonida azot bilan birga qo'shimcha sifatida NH<sub>3</sub>, NO va O<sub>2</sub> gazlar aralashmasi ajralib chiqadi. Shu aralashma tarkibidagi azot (II) oksid qanday ajratib olinadi?  
A) qizdirilgan mis ustidan o'tkazilib  
B) nitrat kislota eritmasidan o'tkazilib  
C) temir (II) sulfat eritmasidan o'tkazilib  
D) distillangan suvdan o'tkazilib
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasi massasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.  
A) buten B) etilen C) penten D) propen

108. Noma'lum alken gidrogenlanganda 43,5 g mahsulot olindi, yetarli kislorodda yoqilganda esa 132 g modda hosil bo'ldi. U bromlanganda necha gramm dibromalkan hosil bo'ladi?  
A) 138 B) 162 C) 151,5 D) 150,4